

Qadr topgan ustozlar

Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun ham urushni, uning qahramonlarini, g'yalabaga munosib hissa qo'shgan va shu bilan birga tinch davrda ham o'z mehnati bilan ayniqsa pedagogik faoliyati bilan xammaga o'rnak va ustoz bo'lib kelgan hech bir kishini xotirasidan forig' qilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9 - may Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarorida alohida ta'kidlanganidek: "Xotira – kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-tilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi".



Xotira va qadrlash kunida nafaqat ulug' vatan qatnashchilarini xotirlash, balki ustozlarni, nuroniylarni, faxriylarni xam xolidan xabar olish bugungi kunda oliyanob an'anaga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrasи mudiri Z.Ismailova boshchiligidagi ushu kafedrada uzoq yillar o'zininig mehnati bilan sharaf topgan, hozirda qarilik gashtini surayotgan ustoz Rinat Sultanovich xonardoniga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida ustoz bilan ishlagan davrlar xotirlandi va shu kunning qadri, yaratilayotgan sharoitlar, ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar vaholanki hayotdan mamnun ekanliklari haqida fikr berdilar. Ustozni bergen nasihatlari, ugitlari doimo ish jarayonida dasturamal bo'lib kelayotganini yana bir bor mammuniyat bilan xotirlandi. Ustozimiz Musaev Rinat Sultonovichga uzoq umr va sog salomatlikda yurishlarini tilab qolamiz.



**Professional ta'lim va jismoniy madaniyat kafedra jamoasi Axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**